

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKDA “OILA” KONSEPTINING NAZARIY ASOSLARI VA LISONIY TALQINI

Altinboyev Nuriddin Abdumannonovich

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy

kommunikatsiyalar universiteti

katta o‘qituvchisi, PhD

nuriddinaltinbaev@gmail.com

ORCID NO: 0009-0000-5113-0030

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada lingvomadaniyatshunoslik fanining fundamental tushunchasi bo‘lgan “konsept” hodisasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida konseptning inson tafakkuri, til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘lovchi funksiyasi o‘rganiladi. S. Askoldov, D. Lixachev va V. Karasik kabi olimlarning qarashlari tahlil qilingan holda, turk madaniyatida markaziy o‘rin tutuvchi “oila” konseptining lisoniy manzarasi (OLM) paremiologik va frazeologik birliklar asosida yoritib beriladi. Maqolada konseptning yadroviy va periferik zonalari, shuningdek, uning kognitiv metaforalar orqali voqelanishi ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: “muqaddaslik”, “ishonch”, “boshpana”, “yordam”, “qadriyat”, “konsept”, “oila” konsepti.

АННОТАЦИЯ

В данной статье теоретически и практически анализируется феномен «концепта», являющийся фундаментальным понятием лингвокультурологии. В рамках исследования рассматривается связующая функция концепта между человеческим мышлением, языком и культурой. На основе анализа научных взглядов С. Аскольдова, Д. Лихачёва и В. Карасика освещается языковая картина концепта «семья», занимающего центральное место в турецкой культуре, с опорой на паремиологические и фразеологические единицы. В статье научно обосновываются ядерные и периферийные зоны концепта, а также его репрезентация посредством когнитивных метафор.

Ключевые слова: «святость», «доверие», «приют», «помощь», «ценность», концепция, концепция «семьи».

ABSTRACT

This article provides a theoretical and practical analysis of the “concept” phenomenon, a fundamental unit of linguistic culture. The study examines the linking function of the concept between human cognition, language, and culture. By analyzing the perspectives of scholars such as S. Askoldov, D. Likhachev, and V.

Karasik, the article highlights the linguistic worldview (LWV) of the "family" concept, which holds a central place in Turkish and Uzbek culture, based on paremiological and phraseological units. The research scientifically grounds the nuclear and peripheral zones of the concept, as well as its manifestation through cognitive metaphors.

Keywords: "holiness", "trust", "shelter", "help", "value", concept, "family" concept.

KIRISH

XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslikda kuzatilgan antropotsentrik paradigmaning ustunligi tilni shunchaki belgi tizimi emas, balki madaniyatning ko'z gusi sifatida o'rganishni taqozo etdi. Lingvomadaniyatshunoslik fani til sohiblarining mentaliteti, qadriyatlar va dunyoqarashini o'zida mujassam etgan "konsept" birligini tahlil qilishni bosh maqsad qilib qo'yadi. Konsept – bu inson ongida saqlanadigan, madaniy boyliklar bilan qoplangan va lisoniy birliklar orqali namoyon bo'ladigan murakkab mental hodisadir.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlab qolish va jamiyatning mustahkamligini ta'minlashda "oila" instituti barcha turkiy xalqlar uchun muhim tayanch nuqta hisoblanadi. Tadqiqotimizning maqsadi "oila" konseptining turkiy xalqlar lisoniy manzarasidagi o'rni, uning paremiologik va metaforik ifodalanish xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Konsept tushunchasi tilshunoslikka 1928-yilda S. Askoldov tomonidan kiritilgan bo'lib, u konseptni "haqiqatni fikrlash jarayonida o'rnini to'ldiruvchi tafakkur shakli" deb ta'riflagan. Keyinchalik D.S. Lixachev konseptni "madaniyat va tilni bog'lovchi ko'priq" deb atab, uning shaxsiy tajriba bilan uzviy bog'liqligini ta'kidladi.

V. Karasik esa konseptning strukturasi uch bosqichli modelda tavsiflaydi:

Tushunchaviy (konseptual) komponent: Ob'yektiv xususiyatlar.

Baholovchi komponent: Jamiyatning ushbu hodisaga nisbatan munosabati (yaxshi/yomon).

Obrazli komponent: Metaforalar va assotsiativ tasavvurlar.

Tadqiqotimizda paremiologik tahlil (maqollarni o'rganish), konseptual metafora tahlili (Lakoff va Jonson nazariyasi asosida) hamda leksikografik tahlil metodlaridan foydalanildi. Bu metodlar "oila" konseptining milliy qadriyatlar bilan qanchalik chuqur ildiz otganini aniqlashga xizmat qiladi.

NATIJALAR

“Oila” konsepti – bu shunchaki birgalikda yashovchi insonlar guruhi emas, balki insonning jamiyatdagi o‘rnini belgilovchi murakkab mental tuzilmadir.

Yadroviy va periferik zonalar

Yadroviy zona: Bu yerda “oila” tushunchasining denotativ ma’nosi joylashadi (nikoh, nasl, birgalikda yashash). Turk tilidagi aile so‘zi arab tilidan o‘zlashgan bo‘lsa-da, turkiy madaniyatda ovush, uy, o‘choq kabi so‘zlar bilan qadimdan boyitilgan.

Periferik zona: Bu qatlamda oilaga nisbatan hissiy va baholovchi tushunchalar joylashadi: “muqaddaslik”, “ishonch”, “boshpana”, “yordam”, “qadriyat”.

Metaforik model va obrazli komponent

“Oila” konsepti tilimizda metaforik tarzda “o‘choq” yoki “uy” modeli bilan ifodalanadi. “O‘choq” (turkcha: ocak) – nafaqat taom tayyorlanadigan joy, balki oila birligi, farovonlik va issiqlik ramzidir. Oila parchalanib ketishini “o‘choq so‘nishi” deya ta’riflash, konseptning obrazli komponenti naqadar chuqur ekanligini ko‘rsatadi.

Paremiologik birliklarda (maqollarda) esa oila birligi va uning ijtimoiy roli “tenglik” (teng tengi bilan) tamoyili asosida yoritiladi. Masalan, “Davul dengine çalar” (Nogora barobar chalinadi) maqoli oilaviy munosabatlarda ijtimoiy va ma’naviy moslikning naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Qadriyatlar har bir xalq vakillari tomonidan amalda qo‘llanilishi va eng yaxshi hayot tarzlarini namoyish etishi uchun ijobiy, deb hisoblanadigan fazilatlar, xususiyatlar va tamoyillardir. Madaniy qadriyat esa jamiyatlarning e’tiqodlari, urf-odatlar, tillari va munosabatlari hisoblanadi. Jamiyat, jamoa va etnik guruhlarining madaniy merosi madaniy qadriyatlarda jamlanadi va namoyon bo‘ladi. Madaniy qadriyatlarning kishilik va ijtimoiy jihatdan umumiyliklari mavjud, biroq turli jamiyatlarda o‘ziga xos jihatlarni ham ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi kunga kelib, turk tilida “oila” leksemasi arab tilidan o‘zlashgan *aile* so‘zi bilan ifodalanadi. Turk tilining izohli lug‘atida *aile* so‘zining olti ma’nosi keltiriladi. Birinchisi, turmush qurish yoki qon-qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langan, er, xotin, bolalar, aka-uka (opa-singil)lar orasidagi munosabatlarda paydo bo‘ladigan jamiyat ichidagi eng kichik birlik: *Birbirlerine nasil turkun, yangın bir aile olduklarını sayıp döktü.* –L.Tekin (Bir-birlariga qachalik mehribon, inoq oila ekanliklarini og‘zini to‘ldirib gapirdi). Ikkinchi ma’nosi esa, bir nasl yoki qarindoshlik rishtalari bilan bog‘langan kishilarning hammasi: *Kendilerinin hangi asil aileye mensup olduklarını bilmiyorum.* –N.Hikmet (U kishining qaysi aslzoda oiladan ekanligini bilmayman) nazarda tutadi.

Uchinchi ma'nosini, birgalikda istiqomat qiladigan qarindoshlar va yaqinlarning barchasi bo'lsa, to'rtinchisi "turmush o'rtoq, xotin" ma'nosini beradi. Beshinchi va oltinchi ma'nolari biror tur yoki sinfni ifodalaydi.

Bu yerda konsept nafaqat til birligi, balki insonning "xulq-atvor dasturi" vazifasini o'taydi. Turk madaniyatida oila instituti – davlatning mikromodeli. Qadimgi turklarning "kuchli oila – qudratli davlat" degan qarashi bugungi kunda ham lingvistik birliklarda (maqol va matallarda) o'z aksini topgan. Oila muammosi (ajralishlar, tushunmovchiliklar) tilshunoslikda "freymlar" nazariyasi orqali o'rganiladi, ya'ni oila atrofidagi barcha hodisalar bir tizimga jamlanadi.

XULOSA

"Oila" konsepti – turkiy xalqlar madaniyatining o'zagidir. Lingvomadaniy nuqtayi nazardan, bu konsept til sohiblarining dunyoqarashini belgilovchi eng barqaror va boy mental birliklardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

Konseptlar faqat lug'aviy birlik emas, balki xalqning tarixiy tajribasi va qadriyatlar to'plamidir.

"Oila" konsepti o'z ichiga tarbiya, tenglik, hurmat va vatanparvarlik kabi qator sub-konseptlarni qamrab oladi.

Paremiologik tahlil shuni tasdiqlaydiki, maqollar – xalqning yashash falsafasini kodlashtiruvchi eng qisqa va aniq vositadir.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu konseptni g'arb madaniyatidagi oila konsepti bilan qiyosiy o'rganish, "oila"ning modernizatsiya jarayonlaridagi transformatsiyasini lingvistik tahlil qilish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово. // Русская словесность. Антология. – М.: Academia, 1997.
2. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка//Русская словесность: Антология. – М.: Academia, 1997.
3. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты. Дискурс. – М.: Гнозис, 2004.
4. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – с. 388..
5. Altinboyev N. Lingvokulturologiyada konsept birligi masalasi. Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar: muammo va yechimlar.- Andijon, 2021.

6. Altinboyev N. “Oila” konseptining turk tilidagi qadriyat va metaforalarda ifodalanishi. Turkologiya Turkology xalqaro ilmiy jurnal 2(2). -Toshkent 2025.
7. Altinboyev N. Türk Dilində “Ailə” Konsepti: “Ocaq” və “Yuva” Vahidlərin Linqvomədəni Təhlili. ELMİ İŞ Beynəlxalq Elmi Jurnal. 2025. <https://aem.az/uploads/posts/2025/12/E%C4%B0%20XB%20NA.pdf>
8. Aksoy, A.Ö. Atasözleri ve deyimler sözlüğü. Atasözleri sözlüğü I // 9.baskı. – İstanbul, 1994.
9. Yurtbaşı M. Sınıflandırılmış Atasözleri Sözlüğü. 10.bsk. – İstanbul, 2012.
10. Akalın Ş.H. ve başkalar. Türkçe Sözlük // 11.baskı. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2011.